

## Texnologiya Fani Darslarida O'Quv-Ko'rgazmali Qurollardan Foydalanish

**Usmonova Muxlisaxon Sobirovna**

Qo'qon DPI dotsenti

**Isaqova Nasibaxon Abdusalim qizi**

Qo'qon DPI talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada texnologiya fani darslarida o'quv-ko'rgazmali qurollardan foydalanish o'quvchilarda hosil qilinadigan texnik bilim va ko'nikmalarning ahamiyati yoritib berilgan.

**Tayanch so'zlar:** mehnatning mazmuni, texnik vositalar, ko'rgazmali qurollar, qo'llanmalar, didaktik va tarqatiladigan materiallar, ko'rgazmalilik.

Ta'limda o'quv ko'rgazmali vositalardan foydalanish o'zida muhim didaktik talabni aks ettiruvchi usullar majmuasi bo'lgan ko'rgazmali metodlari vositasida amalga oshiriladi. Hozirgi davrda zamonaviy o'quv-ko'rgazmali vositalarni qo'llashning eng yuqori ta'limiy, tarbiyaviy hamda shaxs sifatlarini rivojlantiruvchi variantlarini qo'llashni talab qilmoqda. U texnologiya fani o'qituvchilarini ko'rgazmali vositalarni qo'llash barobarida ta'lim oluvchilarning fikrlash va tasavvur qila olish sifatlarini ham rivojlantirishga yo'naltiradi.

Texnologiya fani o'qituvchisining belgilangan rejani bajarish yuzasidan tashkil etadigan o'quv ishlari tayyorlov va amalga oshirish bosqichlariga bo'linadi.

Darsga tayyorlanish davomida o'qituvchi o'z imkoniyatiga qarab quyidagilarni ta'minlaydi:

- ta'limning zarur bo'lgan texnik vositalarini, ko'rgazmali qurollar, qo'llanmalarni, didaktik va tarqatiladigan materiallarni tayyorlaydi;
- murakkabliklar vujudga kelishini oldini olish va eng muhim joylarni tanlab olish uchun namoyish etilishi ko'zda tutilgan tasvirlar, audioyozuvlar, diafil'mlarni, ko'rgazmalarni darsdan oldin qarab chiqadi, o'quvchilar tomonidan bajariladigan amaliy ishlarni tartibini aniqlashtiradi;
- oldindagi tajribalar, amaliy ishlar va ko'rgazmalarni tayyorlash ishlariga o'quvchilarni jalb etadi. Uyda va darsda vaqt sarflanishlarini hisobga olish uchun takrorlash, uy ishlarini hamda o'zlashtirilgan nazariy mavzuni mustahkamlash mashqlarini avvaldan bajarib qo'yishga chorlaydi;
- o'qituvchi dastlabki tashkiliy ishlar davomida darsning rejasiga ba'zi bir o'zgarishlar, aniqliklar kiritadi, o'quvchilarda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin bo'lgan ba'zi bir topshiriqlarni olib tashlaydi yoki bosqichlarga ajratadi.

Ko'rgazmalilik metodini bevosita dars jarayonida amalga oshirish bir tomondan o'qituvchining o'z harakatlarini tashkil etishni, boshqa tomondan o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish yuzasidan faoliyatlarini tashkil etish, nazarda tutadi. O'quvchilarning faoliyatlarini tashkil etish

o'zida ularning oldiga o'quv topshiriqlarini qo'yish, o'quvchilar ushbu topshiriqlarni qabul qiladigan qulay sharoitlarni yaratish, amaliy ishlarni tashkil etish davomida o'quvchilar o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlash va ular oldida turgan faoliyatning turlari haqida tushunarli, aniq yo'l-yo'riqlar berish, o'quv topshiriqlarini bajarish mobaynida o'quvchilarga o'z vaqtida yordam ko'rsatish kabilarni qamrab oladi.

Ta'limning ko'rgazmali metodlarini shartli ravishda ikki katta guruhga bo'lish mumkin: illyustaratsiya va namoyish qilish metodlari.

Illyustaratsiya metodi, o'quvchilarga illyustaratsiya qo'llanmalar-plakat, xarita, doskada rasm, kartina, olimlarning portretlari va boshqalarni ko'rsatishni ko'zda tutadi.

Namoyish qilish metodi odatda asboblari, tajribalar, texnik qurilmalar, turli tipdagi ish asboblarini namoyish qilish bilan bog'liq. Namoyish qilish metodiga shuningdek, turli fil'm namoyish qilish ham kiradi.

Ko'rgazmalilik metodini qo'llashda: namoyish qilish va ko'rsatish qulayligini ta'minlash (ekran, bo'yash, pastdan yoritish, ko'tarish moslamalari va boshqalar), mehnat predmeti yoki asbobini ish jarayonida kuzatish, namoyish qilingan lavha yoki ish operatsiyasi va hokazolar natijalarini muhokama qilish usullardan foydalaniladi:

Keyingi yillarda amaliyot ko'rgazma vositalarining yangi avlodi bilan boyib bormoqda. Yangi, plastmassa qoplamali ancha rangdor ish asboblari, materiallarga ishlov berish texnologiyasi hamda xavfsizlik texnikasi qoidalarini aks ettiruvchi illyustrativ al'bomlar. O'qitish amaliyotiga kunduzgi sinfni qorong'irlashtirmasdan, o'qituvchining shaffof plyonkada tayyorlagan rasm, sxema, chizmalarini ko'rsatuvchi LETI apparati, kodoskoplar kirib keladi. Darslarda vatmanga keng flomasterlar yordamida chizilgan, o'rganilayotgan hodisaning birin-ketin barcha bosqichlari dinamikasini ochib berish imkonini beruvchi suratlar qo'llanila boshlandi.

O'quv kinosini namoyish qilishni qo'llash metodi ta'lim amaliyotida odatdagi hodisa bo'lib qoldi. Asosiy o'quv filmlarining ro'yxati hozirgi kunda maktab dasturlariga kiritildi. Bu esa o'qituvchining tanlashini ancha osonlashtiradi. O'quv jarayonida mavzu bo'yicha to'liq fil'm ham, shuningdek, kino lavhalardan va kinokolsovkadan ham foydalaniladi. Kinolavhalar tegishli mavzuning ayrim masalalariga bag'ishlanadi. Kinokolsovka odatda yopiq jarayonlarni, masalan, ichki yonuv dvigateli modelining ishlash jarayoni, uchish jarayoni, samolyotning uchishi va qo'nishini aks ettiradi.

Ta'limning ko'rgazmali metodining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular albatta og'zaki ta'lim metodlari bilan muayyan darajada uyg'unlashib ketadi. Og'zaki va ko'rgazmali ta'lim metodlarining o'zaro chambarchas bog'liqligi shundaki, obyektiv reallikni bilishning dialektik yo'li jonli mushohada abstrakt tafakkur va amaliyotni birlikda qo'llanishini taqozo etadi.

Og'zaki nutqning ko'rgazmalilik bilan bog'liq ravishda amalga oshirishning quyidagi shakllari o'rganilgan:

- o'qituvchi so'z vositasida ta'lim oluvchilarning obyektini kuzatish jarayonini boshqaradi. Bevosita aks etuvchi xususiyatlari, qiyofasi va munosabatlar to'g'risidagi xulosalar kuzatish jarayonida obyektning o'zidan olinadi;
- o'qituvchi ta'lim oluvchilarning obyektini kuzatish natijalari hamda ular ega bo'lgan bilimlarga tayanib, bevosita ko'rib bo'lmaydigan aloqalarni anglab yetishlarini ta'minlaydi;
- obyektning qiyofasi, uning bevosita ko'rish mumkin bo'lgan xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ta'lim oluvchilar o'qituvchining so'zlaridan bilib oladilar, ko'rgazmali vosita esa so'zlar vositasida ma'lum qilingan belgilarni aniqlashtirish va aniqlashtirishga xizmat qiladi;
- ta'lim oluvchilarning kuzatish natijalaridan kelib chiqqan holda pedagog ko'rgazma vositadagi bevosita ko'rinmaydigan aloqalar to'g'risidagi ma'lumot beradi, yoki alohida belgilarni o'zaro bog'laydi, umumlashtiradi.

Demak, og‘zaki nutq va ko‘rgazmalilikni o‘zaro bog‘liq holda amalga oshirishning turli shakllari mavjud ekan. Ularning qaysidir bittasini afzalroq deb baholash mumkin emas, zarur shaklni esa har bir mashg‘ulot uchun belgilangan vazifalar, mavzu mazmuni, mavjud ko‘rgazmali vositalar xususiyatlari, shuningdek o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib belgilash lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sobirovna, U. M., & Sharifjon, P. O. (2023). Choosing Organizational Forms of Education in the Effective Organization of Technology Courses. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 2(2), 77-81.
2. SOBIROVNA, U. M. (2021). Modernization of the content, methods and tools of technologies in the organization of modern education. *IEJRD*.
3. Усмонова, М. (2022). Imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitishda texnologiya fanining dolzarbligi. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(4).
4. Gulomovna, I. M., & Sobirovna, U. M. (2022). IMPROVING THE FIELD OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL PERSONNEL IN THE SPECIALTY OF TECHNOLOGICAL EDUCATION IN UZBEKISTAN. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(7).
5. Sobirovna, U. M. (2023). O‘QUVCHILARNI TEXNOLOGIYA FANINI O‘ZLASHTIRISHGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH. *Ustozlar uchun*, 16(1), 392-399.
6. Sobirovna, U. M. (2023, March). MAXSUS TA‘LIMGA EHTIYOJI BO‘LGAN BOLALAR UCHUN TA‘LIMNING INTEGRATSIYALASHUVI. In *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (Vol. 2, No. 4, pp. 14-19).
7. Sobirovna, U. M. (2023). Technology As a Factor of Educational Education In Special Schools. *Journal of Creativity in Art and Design*, 1(1), 4-7.
8. Sobirovna, U. M. (2023, March). TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIGA INTEGRATSION YONDASHUV. In *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (Vol. 2, No. 4, pp. 109-113).
9. Sobirovna, U. M. (2023). PROFESSIONAL TRAINING OF STUDENTS OF SPECIAL BOARDING SCHOOLS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, 12(10), 62-67.
10. Sobirovna, U. M. (2023). TEACHING OF TECHNOLOGY IN SPECIAL BOARDING SCHOOLS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, 12(10), 48-54.
11. Султонова С. Х. Русский язык в Узбекистане: вчера и сегодня //Гуманитарный трактат. – 2018. – №. 25. – С. 8-10.
12. KARIMOVA U., SAYYORA S. Роль языка в процессе перевода //3rd Eurasian Conference on Language and Social Sciences. – 2018. – С. 68.
13. Султонова С. Х. УЧЕБНО-РЕЧЕВАЯ СИТУАЦИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ УЗБЕКСКИХ УЧАЩИХСЯ ЭЛЕМЕНТАРНОГО И БАЗОВОГО УРОВНЕЙ //Русское слово в международном образовательном пространстве: история и современность. – 2021. – С. 437.
14. Султонова С. Х. КОММУНИКАТИВНЫЕ АСПЕКТЫ В МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИИ РКИ В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА //International journal of conference series on education and social sciences (Online). – 2022. – Т. 2. – №. 3.
15. Султонова С. Х., Насириддинова М. М. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРАКТИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО (НА ПРИМЕРЕ ОНЛАЙН-ДОСКИ) //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 1346-1352.